UMUMJAHON ECOLOGIK INQIROZLAR DAVRIDA MILLIY ECO-MADANIYAT, TEJAMKORLIK VA ISROFGARCHILIKKA QARSHI KURASH STRATEGIYALARI

Normuhammadov Oyatilloh Akmaljon o‘g‘li
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi “Islom iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar” ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabalasi
Boliboyeva Vasila Sodiq qizi
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
“Islom iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar” ta’lim yo’nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya:Ushbu maqolada umumjahon ekologik inqirozlar davrida milliy eko-madaniyat, tejamkorlik va isrofgarchilikka qarshi kurash strategik yo‘nalishlari ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi,Shu jumladan eco-madaniyat o‘zi nimaligi o‘zbek xalqining an’anaviy qadriyatlari tarkibidagi ekologik madaniyat elementlari va zamonaviy barqaror rivojlanish prinsplari ahamiyti haqida aytib o‘tiladi.

Kalit so’zlar: tejamkorlik, isrofgarchilik, barqaror rivojlanish, resurs samaradorligi.

Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot jarayonida inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanat tobora izdan chiqmoqda. Ekologik muammolar sonining ortib borish insoniyatdan tub o‘zgarishlarni talab qilmoqda. Suv tanqisligi, yerlarning unumsizlanishi va atmosfera ifloslanishi kabi ekologik muammolarni faqat iqtisodiy, siyosiy yoki texnik cheklovlar bilan hal etib bo‘lmasligi ma’lum bo‘ldi. Muammoning tub ildizi - insonning iste’molchilik madaniyati va ekologik ongining pastligidir. Har qanday ekologik muammolarga ongli, mas’uliyatli va barqaror yondashuv yo‘qligi bugungi kunda global inqirozlarni yanada chuqurlashtiruvchi asosiy omil bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun milliy eko-madaniyatni yuksaltirish va tizimli tejamkorlik strategiyasini ishlab chiqish bugungi kunning eng dolzarb ilmiy va amaliy vazifalaridan biridir.


Xo‘sh bu ko‘zda tutilayotgan strategik jarayonni qayerdan boshlash kerak.Ushbu jarayonning bosh nuqtasi, shubxasiz Orol dengizi va uning yuzaga kelgan murakkab ecologic inqirozlardir. Orol fojiasi faqatgina bir geografik mintaqaning muommosi emas, balki insoniyatning tabiat qonunlariga asossiz aralashuvi natijasida yuzaga kelgan fojia

hisoblanadi.Orol fojiasi yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan voqealardan biri- Amudaryo va Sirdaryo suvlarining boshqa o‘zanga o‘zgartirilishi bo‘lsa boshqa tomondan noto‘g‘ri suv siyosati va rajalashtirilmagan irrigatsiya tizimi hisoblanadi.Qo‘shimcha qilib, kechiktirilgan ecologik muhofazani ham aytish mumkin.Olimlar o‘ylagandan ko‘ra tezroq quriy boshladi va hozirgi kunda kichik hududida suv bor . O‘zbekiston va Qozog‘iston ham muammoni hal qilish uchun orolni to‘ldirish kabi chora-tabdirlarni ham ko‘rdi. Afsuski katta orol quridi.Kichikida esa halilham umid bor. Shunday ekan, Orol fojiasidan saboq chiqargan holda, atrof-muhitga bo‘lgan to‘g‘ri iste’molchilik kayfiyatini shakllantirish, ecologik madaniyatni kengroq targ‘ib qilish bugungi kunning strategik zaruriyatidir.

Eko-Madaniyat nima: (ekologik madaniyat)- bu insonning tabiatga nisbatan ongli, axloqiy, mas'uliyatli munosabatini aks ettiruvchi madaniy, axloqiy, ma'naviy qadriyatlar majmuidir. Hozirgi kunda tehnologik tarqqiyot insoniyatga qulaylik yaratgani bilan birga atrof-muhit tabiat uchun ham o‘ziga xos jiddiy muammolarni shakllantirdi.Bu holatga barcha davlatlar turlicha yondashmoqda buni O‘zbekiston misolida ko‘radigan bo‘lsak: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-184-sonli qarori mamlakatimizda barqaror rivojlanishni ta’minlash va ekologik inqirozlarning oldini olish yo‘lidagi eng muhim strategik qadamlardan biridir. Bundan tashqari, Aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda va har bir fuqaroning hayot faoliyatida ekologik ta’lim-tarbiya hamda madaniyatni uzluksiz yuksaltirib borish barqaror ekologik rivojlanishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. [1, 5-b].

Ta’lim va tarbiya ham oiladan boshlangani uchun oilalarda suvdan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish, toza likopcha, maishiy chiqindilarni saralash madaniyatini shakllantirish bo‘yicha muntazam ravishda targ‘ibot tadbirlari, ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazish to‘g‘ri yo‘l deb qaralmoqda. Hamda, rivojlangan xorijiy davlatlarning ta’lim dasturlarini qabul qilish ular tarbiyalanuvchilar uchun joriy etayotgan ecologik madaniyatni asoslarini shakllantirishga qaratilgan ona tabiatni asrab-avaylash,unga nisbatan mehr-muhabbat tuyg‘ularini kuchaytirish mavzularida tomoshalar va sahna ko‘rinishlarini tashkil etish

orqali milliy o‘zlikni saqlash isrofgarchilikga qarshi samarali kurashish mumkin.O‘zbek xalqining milliy qadriyatlari, urf-odatlari va falsafiy qarashlarida ekologik madaniyat qadimdan shakllangan. “Uvol bo‘ladi”, “Suvga tupurma”, “Birni kessang, o‘nni ek” kabi xalq maqollari shunchaki gap emas, balki asrlar davomida shakllangan **ekologik qonunlar** hisoblanadi. Afsuski, hozirgi globallashuv zamonida ecologiyaga ta’sir ko‘rsatmasdan biron nima qilish qiyin lekin ma’suliyatli yondashish va ishlab chiqarishga (BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarining 12-maqsadi) alohida tizmli e’tibor qaratilsa ta’sir darajasini kamaytirish mumkin. Yana bir misol, “O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilatotgan chora-tadbirlar haqida.2030-yilgacha bo‘lgan davrda 3,3 million nafar maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida, 4,2 million nafar umumiy o‘rta ta’lim tizimi tashkilotlari o‘quvchilarida, 400 ming nafar o‘rta maxsus va kasbiy ta’lim tizimi tashkilotlari o‘quvchilarida ekologik madaniyat va ta’lim-tarbiyaning mustahkamlanishi, 1,9 million nafar oliy ta’lim tizimi tashkilotlari talabalarida va 90 foiz davlat organlari, korxona va muassasalari xodimlarida ekologik madaniyatning yuksaltirilishi ko‘zda tutilgan [2, 3-b]. Aholiga ecologik bilmini shunchaki tarqatish emas, balki bu bilimlarni har bir fuqaroning kundalik hayotiy qadriyatiga aylantirish ushbu qonun mahsulidir.



Isrofgarchilikning Iqtisodiy va Ekologik Zararlari: isrofgarchilik nafaqat moliyaviy yo‘qotish, balki tabiatga qo‘shimcha bosim elementidir.Eng ko ‘p isrof qilinadigan mahsulotlar orasida oziq ovqat eng yuqori o‘rinlarni qayd etadi.Misol uchun , insoniyat dunyodagi oziq-ovqat mahsulotlarining deyarli beshdan bir qismini isrof qiladi. Bu haqida BMT Atrof-muhit dasturi ma’ruzasida aytilmoqda. Ma’lumotlar 2022 yil uchun to‘plangan [3, 4-b]. Vaholanki bu ko‘rsatkich 4 yil ichida ancha yuqorilagan. Chiqindilarning asosiy qismi (60%) uy xo‘jaliklaridan chiqadi. Har bir inson yiliga 79 kilogramm oziq-ovqat va uning qoldiqlarini tashlab yuboradi. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, shu bilan birga sayyoramizda sakkiz yuz millionga yaqin odam oziq-ovqat tanqisligidan aziyat chekmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, umumjahon ekologik inqirozlar davrida milliy eko-madaniyatni yuksaltirish mamlakatning milliy xavfsizligi va barqaror kelajagini ta’minlashning asosiy shartidir.Har bir fuqaro belgilangan qonun- qoidaga rioya qilishi

lozim. Tejamkorlik shunchaki kambag‘allik yoki cheklov belgisi emas, balki yuqori intellekt va madaniyat belgisidir. Isrofgarchilikka qarshi kurash strategiyasi har bir fuqaroning kundalik odatiga aylangandagina, biz tabiat va jamiyat o‘rtasidagi muvozanatni saqlab qola olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. PQ-184-сон 15.05.2025. 2030-yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.
2. ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТ – БАРҚАРОР ЖАМИЯТ
3. https://aniq.uz/uz/yangiliklar/

